



## JABRLANUVCHILARNING XALQARO XUSUSIY HUQUQDA KOMPENSATSIYA VA HIMOYA VOSITALARI

**<sup>1</sup>Akramov Akmaljon Anvarjon o'g'li**

Toshkent davlat yuridik universiteti

“Xalqaro xususiy huquq” kafedrası o'qituvchisi,

G-mail: lawyerjon191919@gmail.com

+998903371919,

**<sup>2</sup>Hamidova Nodiraxon Hamidjon qizi**

Toshkent davlat yuridik universiteti

Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti talabasi,

G-mail: hamidovanodiraxon@gmail.com

+998916992621.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7393280>

### ARTICLE INFO

Received: 20<sup>th</sup> November 2022

Accepted: 29<sup>th</sup> November 2022

Online: 30<sup>th</sup> November 2022

### KEY WORDS

*Kompensatsiya, mol-mulkka yetkazilgan zarar, ma'naviy zarar, javobgar, transmilliy tijorat nizosi, huquqiy himoya vositalari.*

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada xalqaro xususiy huquqda jabrlanuvchilarning kompensatsiya to'lash masalalari, ularning himoya vositalari, ushbu sohadagi muammolar va ularga yechimlar berish bo'yicha fikr yuritilgan.*

Bilamizki, insoniyat paydo bo'lganidan boshlab uar o'rtasida turli xil shakldagi munosabatlar vujudga kela boshlagan. Birga va bir hududda yashovchlar qabilalarni tashkil etishgan. Mazkur qabilada yashovchi insonlar yashash uchun harakat qilib o'zaro va boshqa qabilalar bilan oldi-sotdi munosabatlarini, ayiborlash munosabatlarini, turli xizmatlar o'rniga haq berish orqali munosabatlar qurishgan. Yillar o'tgani sari davlatlar paydo bo'lib, rivojlanib, ushbu munosabatlar xalqaro munosabat deb tan olinib, ularni tartibga solish zaruriyati vujudga keldi, desak xato qilmagan bo'lamiz. Shu bilan birga, xalqaro munosabatlar vujudga kelgan ekan, uni tartibga solish uchun esa xalqaro huquq sohasi vujudga keldi. Shunday qilib xalqaro huquqda xalqaro xususiy huquq paydo bo'lib, insoniyat bilan birga rivojlanib keldi.

Bunga sabab, chet el elementi bilan murakkablashgan munosabatlarning keng tarqalgan ko'rinishda bo'lishi, chet el huquqiy subyektlarining turli davlat fuqaroligiga mansub bo'lishi, obyektlarning turli davlatlar hududida joylashgan bo'lishi va natijada nizoli munosabatlarning vujudga kelishi, o'zgarishi va bekor bo'lishi uchun asosiy huquqiy faktlarni aniq bo'lmagan davlatlarning huquqiy normalari orqali hal qilinishi, nizolarni o'z vaqtida oldini olish, bartaraf etish va yechib berish kerak bo'lganligi sababli juda tez rivojlanishga olib keldi. Tabiiyki, bu rivojlanish davomida xalqaro xususiy huquq sohasida bir qator yutuqlarga erishildi va shu bilan birgalikda, kamchiliklarga ham ko'zimiz tushishi mumkin. Biz ushbu maqolamizda xalqaro xususiy huquqda jabrlanuvchilarning kompensatsiya va himoya vositalari



mavzusi doirasi fikr yuritib, mazkur yo`nalishdgi yutuqlarga, kamchiliklarga, shuningdek, kelgusida amalga oshirish mumkin bo`lgan takliflarga to`xtalib o`tamiz.

Hozirgi vaqtda dunyo bo`ylab xalqaro xususiy huquqda jabrlanuvchilarning kompensatsiya va ularni himoya qilish vositalari turli kollizion muammolarga sabab bo`lmoqda. Chunki yuzaga kelgan muammo xalqaro xususiy huquqda bir davlat ichida hal qilinmasdan turli davlatlarning o`zaro aloqadorligi natijasida hal qilinmoqda. Bundan tashqari, ushbu davlatlardagi qonun va huquqiy tizim masalasi ham katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Misol qilib aytadigan bo`lsak, bir davlatning huquqi boshqa davlatning huquqiga mos kelmasligi yoki huquqning boshqa tizimiga asoslangan bo`lishi mumkin. Shuning uchun, xalqaro xususiy huquqning rivojlanish tarixi davomida bir qancha konvensiya va boshqa ahdlashuvlar imzolangan. Ba`zi konvensiyalar hozirga qadar xalqaro miqyosda amal qilinib kelinmoqda.

Jumladan, o`tgan bir necha asr davomida xalqaro mamalakatlar o`rtasida munosabatlarning rivojlanishi natijasida xalqaro xususiy huquqning subyektlari bilan bog`liq juda ko`plab xalqaro xususiy munosabatlar va muammolar ham vujudga kela boshladi. Bunday huquqiy munosabatlarning vujudga kelishi, davlatlar o`rtasidagi aloqalarni tubdan rivojlantirish va ular o`rtasidagi tuzilgan shartnomalarni yanada kengaytirish masalasini o`rtaga qo`ymoqda edi. Bundan tashqari, har bitta davlatda chet el fuqarolarini va chet el yuridik shaxslarini himoya qilish va ularga qonun me`yorlarini belgilashni asosiy vazifa qilib belgilab qo`ymoqda edi. Biz bilamizki, chet el

fuqarolarini va chet el yuridik shaxslarini himoya qilish uchun asosan fuqarolik sudlari va arbitraj tartibida (hakamlik sudlarida) amalga oshiriladi<sup>1</sup>. Bu ikki sud jabrlanuvchilar uchun har qanday jarayonni tashkilashtirish va himoya uchun kerak bo`ladigan huquqiy hujjatlarni jamlash uchun yordam beradi.

Bu sohani rivojlantirish maqsadida mamalakatimizda ko`plab islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. O`zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta`biri bilan aytganda, " Ochiq demokratik davlatni qurish, bozor munosabatlarini vujudga keltirish xalqaro e`tirof etilgan konstitutsiyaviy hamda huquqiy asosda amalga oshirilmoqda. Bu asos iqtisodiyotni isloh qilish, uni keng ko`lamda jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi uchun kuchli huquqiy kafolatlar va shart-sharoitlarni ta`minlab beradi."<sup>2</sup>

Bugungi kunga kelib, davlatlar o`rtasidagi xalqaro munosabatlarning shiddat bilan rivojlanishi davlatlar o`rtasidagi fuqarolar va chet el yuridiklarining bir-birlari bilan o`zaro aloqalar kundan kunga ortib bormoqda. Bu esa o`sha davlatlardagi munosabatlar tizimida bir necha yangi qoidalarning vujudga kelishi, chet el fuqarolari va yuridik shaxslarini himoya qilish uchun asos bo`lib xizmat qiladigan qonunlar qabul qilinishiga olib kelmoqda. Bundan tashqari, shu narsani e`tirof etish lozimki, qanchadan qancha xalqaro xususiy

<sup>1</sup> Younas, A., & Akramov, A. (2021). The Essence, Significance and Legal System of the Legal Aspects of the Contract of Trust Management of Property. *International Journal of Development and Public Policy*, 1(6), 170-175.

<sup>2</sup> Karimov I.A. O`zbekiston 21-asr bo`sag`asida: xavfsizlikga tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari// Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo`lida. T.6.- T.: O`zbekiston 1998.-B.227



huquqqa xizmat qiladigan konvensiyalar va qonunlar qabul qilinishiga qaramasdan, chet el fuqarolari va yuridik shaxslariga hozirgacha murakkab hisoblangan kompensatsiya masalasi ochiqlicha qolmoqda.

Bizning rivojlangan zamonamizda kompensatsiya atamasi juda keng va turli ma'nolarga va turli amaliyotda qo'llanishlarga ega. Umuman olganda, kompensatsiya kimgadir qandaydir yo'qotish yoki zarar uchun tegishli va muvozanatli to'lovni amalga oshirishni anglatadi. Bu kompensatsiyaning etimologik ma'nosi shuni anglatadiki, jabrlanuvchi tomonidan yo'qotilgan yoki boy berilgan, boshqa narsaga teng tarzda to'g'ri keladigan narsa yoki qoplanishi mumkin bo'lgan ashyo sanaladi. Buning natijasida, xalqaro huquqda "kompensatsiya" atamasining turli xil qo'llanilishi orqali o'z aksini topadi. Birinchi navbatda, kompensatsiya davlat javobgarligi tomonidan belgilangan qonunchilik asosida qayta tiklash yoki jabrlanuvchining da'vosini o'z vaqtida qondirishni anglatadi. Shuningdek, kompensatsiya shaklini aniqlashtirish, asosan, jabrlanuvchilarning huquqlarini himoya qiladigan organlar tomonidan belgilanadi va u organlar chiqargan hal qiluv qaroriga asoslanib, ko'rilgan zararni to'lash ko'rsatiladi<sup>3</sup>.

Zarar umumiy ma'noda nima degan savol bo'lishi tabiiy, zarar – bu noqonuniy xalqaro xatti-harakatlar bo'lib, ular tomonidan amalga oshirilgan zararni tabiiy holda qaytarilishi yoki buning iloji bo'lmasa, tabiiy shaklida qaytarilishi mumkin bo'lgan qiymatga mos keladigan

summani to'lash yo'li bilan qoplanishi kerak va jabrlanuvchining asosiy huquqlarning buzilganligi sababli kompensatsiya muammosi yuzaga kelish orqali huquqiy oqibat kelib chiqadi<sup>4</sup>.

Hozirgi vaqtga kelib kompensatsiyaning ikki turi mavjud - umumiy va haqiqiy. Haqiqiy kompensatsiya faqat yo'qolgan narsaning o'rnini to'ldirish uchun mablag' bilan ta'minlash uchun mo'ljallangan. Bunda holda, asosan, jabrlanuvchi zarar ko'rgan har qanday holatda ham moddiy manba sifatida pul oladi. Umumiy kompensatsiya to'lovlari haqiqiy kompensatsiya to'lovlariga qaraganda ancha murakkabroq sanaladi. Chunki bu kompensatsiyalar pul mablag'lari tomonidan to'lanishni va shunga o'xshash boshqa moddiy mablag'larni ifodalamaydi. Ya'ni jabrlanuvchi tomonidan ko'rilgan zarar uni himoya qiladigan organlar orqali o'rganilib chiqiladi. Bu esa bir qancha protsess jarayonlarni amalga oshirishni talab qiladi.

Kompensatsiya masalasi bo'yicha xalqaro xususiy huquqqa aloqasi bo'lgan bir nechta konvensiya va xalqaro hujjatlarda to'xtalib o'tilgan. Ulardan biri UNIDROIT qoidalarida alohida ta'kidlanganki, jabrlangan chet el fuqarosi yoki chet el yuridik shaxslarining zarar yetkazilgan tomondan ya'ni jismoniy shaxs yoki yuridik shaxsdan ko'rilgan zararni to'liq qoplatish huquqiga ega. Bunday zarar unga yetkazilgan har qanday zararni shuningdek, shartnomadan yoki o'zaro kelishuvdan olishi mumkin bo'lgan har qanday daromaddan, ya'ni mahrum bo'lgan daromadni ham o'z ichiga oladi. Qo'shimcha tarzda, jabrlanuvchining harajat yoki zarardan qochish natijasida

<sup>3</sup>

<https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:aca&volume=12&issue=4&article=043>

<sup>4</sup> Anvarjon o'g'li, A. A. (2022). RAQAMLI MEROSNI FUQAROLIK HUQUQIY HIMOYASI VA ELEKTRON VASIYATNOMALARI.



kelib chiqadigan har qanday foydasi hisobga olinadi. Jabrlanuvchining har qanday zarari bo'lishi mumkin, masalan, jismoniy azob-uqubatlar yoki ruhiy iztiroblardan kelib chiqqan zararlarni ham o'z ichiga oladi.

Yuqoridagi qoidaning keyingi bandida, jabrlanuvchining shartnomani bajarmaslik natijasida etkazilgan zararni to'liq qoplash huquqi tamoyilini belgilaydi. Bundan tashqari, u shartnomani buzgan shaxslar tomonidan belgilangan talablarni bajarmaslik va zarar o'rtasida sababiy bog'liqlik zarurligini shartnoma tasdiqlaydi. Ishni bajarmaslik jabrlangan tomon uchun na foyda, na zarar manbai bo'lishi kuzatilmagan holda, ayrim huquqiy tizimlarda sudga vaziyatni hisobga olgan holda tovon miqdorini kamaytirishga imkon beradigan yechimga amal qilinmaydi, chunki xalqaro vaziyatlarda bu sezilarli darajada noaniqlik tug'dirishi va uning qo'llanilishi boshqa sudlarda turli xil bo'lishi mumkin.

UNIDROIT qoidalarining tegishli moddaning bandi va CISGning 74-moddasida belgilangan qoidaga muvofiq, zarar undirilishi mumkin bo'lgan zararni aniqlagan holda, jabrlanuvchi nafaqat o'ziga yetkazgan zarar uchun, balki shartnoma asosida kelishgan shaxslarning ishni bajarmaslik natijasida mahrum bo'lgan har qanday daromaddan kompensatsiya olish huquqiga ega ekanligini ta'kidlaydi.

Xalqaro xususiy huquqning xalqaro konvensiyasiga asoslanib, zararni to'liq qoplash tamoyilini qo'llashda zarar har qanday o'zgarishi, shu jumladan uning pul shaklida ifodalanishi, sud tomonidan ijro etmaslik va sud qarori o'rtasida sodir bo'lishi mumkinligi hisobga olinishi kerak. Biroq, xalqaro xususiy huquqda

belgilangan qoidalar bundan mustasno emas: masalan, agar jabrlanuvchining ko'rgan zarari shartnomani buzgan shaxs tomonidan allaqachon zararni o'z hisobidan qoplagan bo'lsa, to'langan zarar ko'rilgan summaga to'g'ri kelishi kerak.

Kompensatsiya masalasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga nazar soladigan bo'lsak, bizning asosiy manbaimiz O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi hisoblanadi. Chunki Fuqarolik kodeksining 985-moddasiga asosan "Zarar yetkazganlik uchun javobgarlikning umumiy asoslari" belgilab berilgan.

Ushbu moddaga muvofiq, "G'ayriqonuniy harakat (harakatsizlik) tufayli fuqaroning shaxsiga yoki mol-mulkiga yetkazilgan zarar, shuningdek yuridik shaxsga yetkazilgan zarar, shu jumladan boy berilgan foyda zararni yetkazgan shaxs tomonidan to'liq hajmda qoplanishi lozim"- deb belgilab qo'yilgan.

Moddaning keyingi bandlarida Qonunda zararni to'lash majburiyati zarar yetkazuvchi bo'lmagan shaxsga yuklatilishi mumkin. Shuningdek, Qonunchilikda yoki shartnomada jabrlanuvchilarga zararni to'lashdan tashqari, tovon to'lash majburiyati belgilab qo'yilishi mumkin deb yozib qo'yilgan. Bundan ko'rishimiz mumkinki, bizning qonunchiligimizda ham kompensatsiya masalasiga kerakli asoslar orqali to'xtalib o'tilgan, ya'ni ikki shaxs o'rtasidagi shartnoma yoki o'zaro kelishuvdan kelib chiqqan zararni jabrlanuvchi tomonga tovon to'lash orqali qoplab berish nazarda tutilgan<sup>5</sup>.

Xalqaro xususiy huquqdagi nizolar sohasini tartibga solish uchun milliy hokimiyat

<sup>5</sup> Gulyamov, S., Rustambekov, I., & Khujayev, S.

Topical Issues of Improvement of Banking System and Legislation in Uzbekistan.



organlari tomonidan qabul qilingan qoidalarga qo'shimcha ravishda xalqaro tashkilotlar tomonidan shartnomalar, namunaviy qonunlar va boshqa hujjatlar qabul qilingan. Bir qator xalqaro tashkilotlar turli yurisdiksiyalarning xususiy huquqini uyg'unlashtirishga qaratilgan ko'p tomonlama xalqaro xususiy huquq shartnomalari, namunaviy qonunlar va boshqa hujjatlarni ishlab chiqish bilan shug'ullanadi. Bu tashkilotlar qatoriga xalqaro xususiy huquq bo'yicha Gaaga konferensiyasi, Xususiy huquqni birlashtirish xalqaro instituti (UNIDROIT) va Yevropa Ittifoqi kiradi<sup>6</sup>.

Aksariyat mamlakatlarning qonunlari singari, Contracts for the International Sale of Goods (CISG), UNIDROIT Prinsiplari va PECL (The Principles of European Contract Law) xalqaro tashkilotlar tomonidan qabul qilingan qonun-qoidalarda, agar javobgar o'zi tan olgan shartnoma majburiyatini bajarmasa, da'vogar ko'rgan zararining to'liq miqdorini, shu jumladan yo'qolgan foydani undirishi mumkinligini ko'rsatadi. Ularning uchtasi o'rtasidagi muhim farq shundaki, CISG ruhiy tomondan ko'rilgan ma'naviy zararni qonuniy qoplab berishga ruxsat bermaydi, UNIDROIT tamoyillari va PECL esa ma'naviy zararni qoplash kerakligi qonun tartibida amalga oshirishi belgilab qo'ygan. Shuningdek, ko'pgina mamlakatlarning qonunlari singari, CISG, UNIDROIT tamoyillari va PECL da'vogarning zararini qancha miqdorda ko'rganligi oldindan ko'rish mumkin bo'lgan bo'lishi kerak va da'vogar o'z ixtiyori orqali oldini olishi mumkin bo'lgan

zararni javobgardan qoplashni istisno qiladi.

Biz bilamizki, xususiy xalqaro huquqda xorijiy elementga ega bo'lgan huquqiy nizolarni ko'rib chiqish tamoyillari va qoidalaridan mavjud: masalan, transchegaraviy ajralish ishi yoki transmilliy tijorat nizosi. Dunyoda eng rivojlangan qonunchilikga ega bo'lgan Angliya va Uels huquqiy tizimida "Xususiy xalqaro huquq" va "Qonunlar to'qnashuvi" atamalari bir-birining o'rnini bosuvchi tushunchalar bo'lib, subyekt qonun tanlash, sud yurisdiksiyasi hamda xorijiy sud qarorlarini tan olish va ijro etishni o'z ichiga oladi. Xalqaro xususiy huquq doirasi har bir mamlakatqonunchiligi boshqa bir mamlakatning qonunchiligidan keskin farq mumkin, ammo har bir yurisdiksiya xalqaro xususiy huquqga asoslangan o'zining qoidalariga ega<sup>7</sup>.

## **Jabrlanuvchilarning huquqlarini himoya qilish vositalari**

Xalqaro xususiy huquqda jabrlanuvchilarning himoya vositalari mavzusi doirasida fikr yuritadigan bo'lsak, aytishimiz mumkinki, xalqaro xususiy huquq hozirgi zamonga kelib, juda keng tarmoqlarni o'z ichiga olmoqda. Shuning uchun, bu xalqaro tarmoq yuzasidan olimlar va tatqiqotchilarning jabrlanuvchilarning huquqlarini himoya qilish vositalari masalasida turlicha fikr va mulohazalari uchrab turmoqda. Bir guruh olimlar xalqaro huquqda jabrlanuvchilarni himoya qilish vositalari sifatida xalqaro tashkilotlar va ular chiqargan xalqaro normalarni asosiy himoya vositalari deb ta'kidlansa, boshqa bir guruh olimlar esa

<sup>6</sup> Private International Law: IALS Library Guides  
<https://libguides.ials.sas.ac.uk/privateinternational-law>

<sup>7</sup> Private International Law: IALS Library Guides  
<https://libguides.ials.sas.ac.uk/privateinternational-law>



xalqaro arbitraj, mahalliy sud va jabrlanuvchilarning huquqlarini himoya qiladigan boshqa organlarni asosiy himoya vositasi deb dalil keltirmoqda<sup>8</sup>. Biz ushbu fikr va mukokamalarga tayangan holda ikki tomonning asosiy dalillarini ko'rib chiqamiz.

Xalqaro darajadagi professor Aleks Mills o'zining yaqinda chop etilgan "Ommaviy va xususiy xalqaro huquqning uyg'unligi" kitobida xalqaro xususiy huquqni "Alohida milliy qoidalar qatori emas, balki yagona xalqaro tizim sifatida ko'rish kerak" deb ta'kidlab, xalqaro tashkilotlar va milliy sudyalar orqali ishlaydigan dalilni davom ettiradi. Ushbu tizimli nuqtai nazardan qaraganda, uning ta'kidlashicha, xalqaro xususiy huquq bag'rikenglik va o'zaro tan olish tamoyillariga asoslangan "adolat plyuralizmi" tushunchalarini aks ettiruvchi hisoblanadi. "Xalqaro xususiy huquqning ishlashi global tartibga solish tartibining xalqaro tizimini ya'ni tartibga soluvchi hokimiyatni taqsimlash, "xaritalash" uchun ikkilamchi huquqiy normalar tizimini tashkil qilish kerak"- deya ta'kidlaydi.<sup>9</sup> Ushbu berilgan g'oyadan bilishimiz mumkinki, xalqaro xususiy huquqni bitta xalqaro darajadagi tizim shaklida rivojlantirish kerak va bu tizim, albatta, har bir davlat ichki qonunchiligining norma va qonunlarida ifodalanishi kerak.

Birinchi tashkilot xususiy huquq bo'yicha Gaaga konferentsiyasi (The Hague Conference on Private International Law (HCCH)) bo'lib, xalqaro xususiy huquq bo'yicha Gaaga konferentsiyasi Gaagada joylashgan hukumatlararo tashkilot bo'lib,

<sup>8</sup> Importance of compensation law in private international law and problems in compensation. A.A.Akramov, E.Normatov, 2022.

<sup>9</sup> New Directions in Private International Law David P. Stewart 268 bet

xalqaro xususiy huquq normalarini izchil birlashtirish bilan shug'ullanadi.

HCCHning vazifasi xalqaro shartnomalarni, davlatlar Ahdlashuvchi tomonlar bo'lishi mumkin bo'lgan HCCH konvensiyalarini va davlatlarni rivojlantirishda yo'l-yo'riq ko'rsatadigan yumshoq qonun hujjatlarini muzokaralar o'tkazish, qabul qilish va amalda qo'llash orqali ishlab chiqilgan xalqaro miqyosda kelishilgan yechimlarni taqdim etish orqali ushbu muammolarni hal qilishdan iborat.<sup>10</sup>

Ikkinchi xalqaro tashkilot bu- UNIDROIT hisoblanadi. Xususiy huquqni birlashtirish xalqaro instituti (UNIDROIT) mustaqil hukumatlararo tashkilot bo'lib, Rimdagi Villa Aldobrandinida joylashgan. Uning maqsadi davlatlar va davlatlar birlashmalari o'rtasidagi xususiy, xususan, tijorat huquqini modernizatsiya qilish, uyg'unlashtirish va muvofiqlashtirish ehtiyojlari va usullarini o'rganish va ushbu maqsadlarga erishish uchun yagona qonun hujjatlari, tamoyillari va qoidalarini shakllantirishdir.

Yuqoridagi xalqaro tashkilotlardan tashqari, bir qancha xalqaro xususiy huquqda sodir bo'layotgan nizoli harakatlarni hal qiladigan va ular uchun xalqaro darajada qonun ishlab chiqadigan xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar ham bor. Albatta, ushbu tashkilotlarning asosiy bosh maqsadi chet el fuqarolarini va chet el yuridik shaxslarining huquq va manfaatlarini boshqa davlatlarda huquqiy muhofaza qilish va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni oldini olish hisoblanadi.

Jabrlanuvchilarning huquqiy himoya qilish vositalari biz aytib o'tgan sud va arbitraj hisoblanadi. Ushbu organlar xalqaro

<sup>10</sup> <https://www.hcch.net/en/about>



darajada va mahalliy davlat organlari darajasida bo'lishi mumkin. Bunga sabab, birinchidan, ayrim chet el fuqarolari va yuridik shaxslari milliy sudlarda o'z ishini ko'rishni xohlamaydi. Ikkinchidan, bir davlatning huquqi boshqa davlatning qonunchiligiga to'g'ri kelmasligi. Misol uchun, bunda, chet el fuqarosi bilan munosabat yuzaga shartnoma boshqa davlatda tuzilgan yoki bajarilishi kerak bo'lganligi sababli yoki chet elda istiqomat qiluvchi shaxslar tomonidan olingan ajralishning tan olinishi tufayli mavjud bo'lishi mumkin. Boshqa davlat sudlaridan da'vo bo'yicha yurisdiksiyani amalga oshirish so'ralishi mumkinligi sababli yoki boshqa davlatning qonunlari bizning O'zbekiston Respublika qonunlaridan farq qilishi mumkinligi va natijada O'zbekiston Respublikasi sudi uning oldida ish yuritishni belgilashda nizoga duch kelishi mumkin. Bunday nizolar xalqaro xususiy huquq normalarini qo'llash orqali hal qilinadi. Shu holatlar sababli ayrim hollarda xususiy shaxslarning ishlarini ko'rib chiqadigan bir nechta mintaqaviy sudlar va arbitraj organlari mavjud<sup>11</sup>.

Milliy qonunlar xalqaro xususiy huquqning asosiy manbalari hisoblanadi. Xalqaro xususiy huquq doirasi bir mamlakat qonunchiligi boshqa mamlakat qonunchiligidan farq qiladi va har bir yurisdiksiya o'z qoidalariga ega. Qo'shma Shtatlar, Kanada va Buyuk Britaniyada qonunlar egiluvchan qonun tizimiga ega bo'lganligi sababli, ushbu qonunchilikda jabrlanuvchilarni qonuniy himoya qilish vositalari boshqacha bo'ladi va biz bu vositalarni o'rganib chiqamiz.

Ushbu davlatlarda, jabrlanuvchilarga nisbatan huquqiy **himoya vositasi**, shuningdek, **sud orqali yordam berish** yoki **sud vositasi** deb ataladi, bu sud, odatda, fuqarolik huquqi yurisdiksiyasini amalga oshirgan holda, fuqarolik huquqida belgilangan choralar ya'ni, huquqni ta'minlash, jazo tayinlash yoki boshqa sud qarorini chiqarish uchun vositadir. Shu kabi, shaxsga nisbatan, yetkazilgan huquqqa xilof xatti-harakatlarning zararini qoplash uchun qonuniy vositadir.<sup>12</sup>

"Umumiy huquq yurisdiksiyalari va aralash fuqarolik-umumiy huquq yurisdiksiyalarida himoya vositalari to'g'risida"gi qonunda huquqiy himoya vositasi (masalan, pul zararining ma'lum bir miqdori ) va adolatli himoya vositasi (masalan , sud qarori yoki muayyan ijro ) farqlanadi. Ushbu davlat qonunchiligi tizimlarda mavjud bo'lgan boshqa himoya vositalarining turi deklarativ yordamdir. Bunda sud zararni qoplash yoki adolatli yordam berishni buyurmasdan tomonlarning da'vo qilish huquqlarini belgilaydi. Muayyan hollarda, qo'llaniladigan huquqiy himoya vositalarining turlari o'sha davlatlardagi huquqbuzarlik va uning javobgarligi xususiyatiga bog'liq.<sup>13</sup>

Amerika Qo'shma Shtatlarining huquq tizimida jabrlanuvchilarni himoya qilish uchun yangiliklarni yoritish natijasida kelib chiqadigan sudyalarning hay'atining noto'g'ri qarorlar qabul qilishiga qarshi kurashish

<sup>11</sup> Importance of compensation law in private international law and problems in compensation. A.A.Akramov, E.Normatov, 2022.

<sup>12</sup> "Judicial remedy – National Action Plans on Business and Human Rights". *globalnaps.org*. 2017-11-03. Retrieved 2020-01-25.

<sup>13</sup> R. Pember & Calvert, Jon & Clay (2014). *Mass Media Law*. New York, NY: McGraw Hill Education. ISBN 978-0077861421.



uchun xizmat qiluvchi sud vositalarining an'anaviy shakli mavjud. Qo'shma Shtatlarning birinchi tuzatishi hukumatga so'z erkinligini senzura va cheklashni ta'qiqlaydi, bu esa tobora kengayib borayotgan axborot vositalariga sud jarayoniga ta'sir o'tkazish imkonini beradi. Ommaviy axborot vositalari va huquq tizimi o'rtasidagi chigal munosabatlar jinoiy ayblanuvchilarning adolatli sudlovlarni amalga oshirish uchun huquqlarini kafolatlaydigan huquqiy tizim yaratish uchun yordam beradi. Sud jarayonining adolatligiga ta'sir etmaslik uchun sudgacha bo'lgan oshkoralikni oldini olish uchun va jabrlanuvchilarni himoya qilish uchun sud darajasidagi himoya vositalari mavjud. Sudgacha bo'lgan oshkoralikning ta'sirini minimallashtirish uchun ommaviy axborot vositalariga ayrim cheklavlar o'rnatilgan.<sup>14</sup>

Ingliz va Amerika yurisprudensiyasida har bir huquqni himoya qilish yo'li bor. Ta'ni bu degani huquqiy norma (ba'zan buzilishda hurmatga sazovor bo'lsa ham) *mavjud; chora yo'q joyda huquq ham yo'q*. Ya'ni qonun chiqaruvchilar huquqlarni himoya qilish uchun tegishli vositalarni taqdim etishga da'vo qilmoqdalar. Ushbu huquqiy fikr birinchi marta professor Uilyam Blekstoun tomonidan ta'kidlangan: "Bu Angliya qonunlarida mustahkam va o'zgarmas tamoyil bo'lib, ushlab holatda, har bir huquq himoya vositasiga ega bo'lishi kerak va har bir zarar o'zining munosib qoplanishi kerak".<sup>15</sup> Birlashgan Qirollik va Qo'shma Shtatlarga qo'shimcha ravishda,

huquqiy himoya vositalari turli mamlakatlarning huquqiy tizimida keng qo'llaniladigan tushunchadir, ammo har xil yondashuvlar mavjud.<sup>16</sup> O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ushbu davlat qonunchiligi kabi har bir huquqqa qo'llaniladigan huquqiy himoya vositasi mavjud emas. Shunday bo'lsada, bugungi kunda qonunimizda kuzatilayotgan huquqiy bo'shliqlarni to'ldirish uchun turli qonunlar qabul qilinib kelmoqda va xalqaro xususiy huquqqa aloqasi bo'lgan konvensiyalarni qonunimizga moslashtirish tarzlari ko'p uchrab turmoqda.

Xulosa qilib aytganda, xalqaro xususiy huquqda kompensatsiya masalasini hal etish, dastlab, turli davlatlar qonunchiligida turlicha ha etilishi mumkin. Tabiiyki, kompensatsiya miqdorini kelib chiqqan zarar miqdoridan nisbatan hisoblab chiqishi belgilangan. Shunga ko'ra, har bitta xorijiy davlatda himoya vositalarida ham xilma-xillikni ko'rishimiz mumkin. Masalan, Angliyaning fuqarolik qonunchiligining "The Civil Liability Act 2018" normasining "yetkazilgan zarar uchun qo'llaniladigan choralar" bobiga ko'ra, chet el fuqarolari va yuridik shaxslariga nisbatan qo'llaniladigan kompensatsiya masalasiga to'xtalib o'tilgan. Yetkazilgan jarohatlar uchun zararlar belgilangan. Bular:

- Ushbu bo'lim sud tomonidan og'riq, azob-uqubat va qulaylikni yo'qotish uchun tovon to'lash uchun quyidagi hollarda qo'llaniladi:

<sup>14</sup> R. Pember & Calvert, Jon & Clay (2014). *Mass Media Law*. New York, NY: McGraw Hill Education. ISBN 978-0077861421.

<sup>15</sup> William Blackstone, *Commentaries on the Laws of England* 23

<sup>16</sup> Skinner, Gwynne; McCorquodale, Robert; De Schutter, Olivier (December 2013). "The Third Pillar: Access to Judicial Remedies for Human Rights Violations by Transnational Business" (PDF). *The International Corporate Accountability Roundtable (ICAR)*.



- Og'riq, azob-uqubatlar va qamchilash jarohati yoki jarohatlar bilan bog'liq to'lanadigan qulayliklarni yo'qotish uchun to'lanadigan zarar miqdori Lord Kansler tomonidan qabul qilingan qoidalarda belgilangan miqdorda bo'lishi kerak.
- Agar da'vogar qamchi urishi yoki jarohati bilan bir xil holatda bir yoki bir nechta engil psixologik jarohatlarga duchor bo'lsa, engil ruhiy jarohat yoki engil ruhiy jarohatlar uchun to'lanishi kerak bo'lgan og'riq, azob-uqubatlar va qulayliklarni yo'qotish uchun tovon miqdori, birgalikda olingan bo'lsa, lord kansler tomonidan qabul qilingan qoidalarda belgilangan miqdor bo'lishi kerak.
- Agar Lord Kansler tomonidan qabul qilingan qoidalarda shunday nazarda tutilgan bo'lsa, og'riq, azob-uqubatlar va qulayliklarni yo'qotish uchun to'lanadigan zarar miqdori belgilangan bo'lish kerak; Rossiya Federatsiyasidagi jabrlanuvchilarning himoya vositalariga nazar tashlaydigan bo'lsak, Rossiya Federatsiyasi qonunchiligi roman-german huquq tizimi bilan asoslangan bo'lib, asosan bizning qonunchiligimiz bilan juda o'xshash hisoblanadi. Shuning uchun, Rossiya Federatsiyasi qonunchiligi ham kodekslashtirilgan shaklga keltirilgan. Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik Kodeksi 1084-moddasiga ko'ra: "Shartnoma yoki boshqa majburiyatlarni bajarishda fuqaroning hayoti yoki sog'lig'iga

etkazilgan zararni qoplash" normasi bilan belgilab qo'yilgan. Bu moddaga asosan, "Shartnoma majburiyatlarini bajarish, shuningdek harbiy xizmat, politsiya xizmati va boshqa tegishli majburiyatlarni bajarish paytida fuqaroning hayoti yoki sog'lig'iga etkazilgan zarar, agar ushbu bobda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno bo'lmasa, ushbu bobda nazarda tutilgan qoidalarga muvofiq qoplanadi. Shuningdek, qonun yoki shartnomada ko'proq miqdorda javobgarlik nazarda tutilgan bo'lishi ham mumkin."

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksida jabrlanuvchiga yetkazilgan ma'naviy zararni qoplash masalasiga alohida modda keltirilgan bo'lib, ushbu modda Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik Kodeksi 1099-moddaga o'xshash shaklda va ma'noda keltirilgan. Ushbu moddaga ko'ra, jabrlanuvchiga yetkazilgan ma'naviy zararining umumiy qoidalar keltirib o'tilgan. Shunday bo'lsada, O'zbekiston Respublikasi jabrlanuvchilarning huquqlarini xalqaro doirada himoya qilish uchun konvensiyalarga, masalan CISG va UNIDROIT tashkilotlarga doimiy tarzda a'zo bo'lishi kerak. Chunki demokratik huquqiy davlatning belgisi faqat fuqarolik huquq va erkinliklarining ta'minlangani emas, balki, ularning buzilgan huquq va manfaatlarining qay darajada tiklash yoki qoplanishidan namoyon bo'ladi.



## References:

1. Karimov I.A. O'zbekiston 21-asr bo'sag'asida: xavfsizlikga tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari// Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T.6.- T.: O'zbekiston 1998.- B.227
2. Private International Law: IALS Library Guide
3. New Directions in Private International Law David P. Stewart 268 bet
4. "Judicial remedy – National Action Plans on Business and Human Rights". *globalnaps.org*. 2017-11-03. Retrieved 2020-01-25.
5. R. Pember & Calvert, Jon & Clay (2014). *Mass Media Law*. New York, NY: McGraw Hill Education. ISBN 978-0077861421.
6. William Blackstone, *Commentaries on the Laws of England* 23
7. Skinner, Gwynne; McCorquodale, Robert; De Schutter, Olivier (December 2013). "The Third Pillar: Access to Judicial Remedies for Human Rights Violations by Transnational Business" (PDF). *The International Corporate Accountability Roundtable (ICAR)*.
8. Younas, A., & Akramov, A. (2021). The Essence, Significance and Legal System of the Legal Aspects of the Contract of Trust Management of Property. *International Journal of Development and Public Policy*, 1(6), 170-175.
9. Gulyamov, S., Rustambekov, I., & Khujayev, S. Topical Issues of Improvement of Banking System and Legislation in Uzbekistan.
10. Anvarjon o'g'li, A. A. (2022). RAQAMLI MEROSNI FUQAROLIK HUQUQIY HIMOYASI VA ELEKTRON VASIYATNOMALARI.
11. Importance of compensation law in private international law and problems in compensation. A.A.Akramov, E.Normatov, 2022.
12. <http://www.lex.uz>
13. <http://www.gov.uz>
14. <https://peacepalacelibrary.nl/research-guide/private-international-law>
15. <https://www.unidroit.org/secured-transactions/>
16. <https://www.legislation.gov.uk/primary+secondary>
17. <https://libguides.ials.sas.ac.uk/privateinternationallaw>
18. <https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:aca&volume=12&issue=4&article=043>